

SEMANTIC AND PRAGMATIC STUDY OF EUPHEMISMS IN THE PROCESSES OF POLITICAL DISCOURSE ON ECONOMICS IN MODERN GERMAN NEWSPAPERS AND MAGAZINES

Nurqulov Javlon Rashid o'g'li

National University of Uzbekistan Named After Mirzo Ulugbek

Specialty Linguistics (German) 2-Year Master's Degree

Republic of Uzbekistan, Tashkent

S.T. Turakulova

Supervisor: Ph.D., cat. arrow

Republic of Uzbekistan, Tashkent

ANNOTATION

In the article, the author describes the application of euphemisms in economic processes in today's newspapers and magazines and their characteristics.

Keyword: euphemisms, euphemisms in economics, money circulation, taxation, economic crisis.

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif evfemizmlarning bugungi kundagi gazeta va jurnallardagi iqtisodiy jarayonlarda qo'llanilishi va ularning xususiyatlarini yoritib bergan.

Kalit so'z: evfemizm, iqtisodiyotdagi evfemizmlar, pul muomalasi, soliq, iqtisodiy inqiroz.

АННОТАЦИЯ

В статье автор описывает применение эвфемизмов в экономических процессах в современных газетах и журналах и их характеристики.

Ключевые слова: эвфемизмы, эвфемизмы в экономике, денежное обращение, налогообложение, экономический кризис.

INTRODUCTION

Bugungi kunda jahonda ro'y berayotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, evfemizmlardan ham yozma, ham og'zaki nutqda faol foydalanish turli sohalarda juda ham o'rinlidir. Jumladan, siyosat, meditsina, atrof-muhit, harbiy sohaga oid, sport, elektr-energiya, iqtisodiyot va ayniqsa, bugungi kundagi pandemiya davrida ulardan foydalanish har qachongidan ham muhim ekanligini ko'rsatmoqda. Ulardan iqtisodiy siyosatda qo'llaniladigan evfemizmlarni tahlil qilamiz.

Iqtisodiy jarayonlarda pul va u bilan bog'liq jarayonlarda evfemizmlar ko'proq uchraydi: Reptilienfonds- Geheimfonds der Regierung. Bunday maxfiy fondlar yana boshqa nomlar bilan ham ataladi. Jumladan, Dispositionsfonds, "schwarze Kasse" ular qatoriga kiradi. Bu evfemik so'z Frankfurter Allgemeine Zeitungda ham keltirilgan:

“Ein Kommissar der Darmstädter Polizei soll Bekannte und Kollegen um fast zwei Millionen Euro gebracht haben. Gemeinsam mit einem Prokuristen, den er im Polizeichor kennenlernte, soll der mittlerweile pensionierte 67 Jahre alte Mann über mehrere Jahre Geld für einen sogenannten Reptilienfonds bei der Polizei gesammelt und hohe Zinsen versprochen haben, sagte Oberstaatsanwalt Ger Neuber am Freitag in Darmstadt [1]”.

Ushbu maqoladan ham ma'lumki, yolg'ondan foiz evaziga katta miqdorda pul olinganligi haqida gap ketadi.

Iqtisodiyotdagi siyosiy evfemizmlar odatda pul inqirozi bilan bog'liq vaziyatlarda ishlatiladi, u bilan bog'liq inqirozning oqibatlarini yumshatib ifodalanadi.

Preisaufltrieb-iqtisodiyotda narx-navoning oshib ketishi. Iqtisodiy siyosatda narxlarning haddan ziyod oshib ketishiga aytiladi. Oldin uni evfemik ma'no sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda esa u oddiy lug'at boyligiga aylanib ulgurgan. Uning evfemik ifoda sifatida qaralishi esa narx-navo o'z-o'zidan ko'tarilib ketmasligi, uning zamirida esa iqtisodiy inqiroz yashiringan bo'ladi. Quyidagi maqolaga ham nazar solinsa, inqirozning oqibatlari natijasida narxlarning oshishini anglash mumkin:

“Schon bei der Pest in Leipzig im Jahre 1611 stieg nach all dem Schrecken und einem Lockdown auch noch der Bierpreis in den Gasthäusern. Auch jetzt gibt es Preisaufltrieb in der Gastronomie [2]”.

Qadimda butun dunyoda vabo hukmronlik qilgan bir paytda 1611-yilda Leipzigda barcha dahshat va hamma joy yopilganidan so'ng, mehmonxonalarda pivo narxi ko'tarilganligi haqida aytiladi. Yuqoridagi inqirosga o'xshab bugungi zamonda Corona pandemiyasining bir necha to'liqlaridan keyin umumiy ovqatlanish savdosida narxlar oshib borishidan ham, albatta, tojdor virusning iqtisodga qanchalar zarar keltirganligini anglash qiyin bo'lmaydi. Yuqoridagi maqolada ham iqtisodiy inqiroz deyilmasdan, narxlar oshib ketishi tarzida ifodalanilayapti va bunday ifodalanilishi natijasida muhitga asta-sekin ko'nikish hosil bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy evfemizmlarga soliqlarni ifodalaydigan turli o'zida kulgili, hazilomuz ma'nolarni mujassamlashtirgan ko'rinishlari ham bor. Ularni bir necha tilshunoslar aytib o'tishgan. Jumladan, Abgabe-to'lov, Beitrag-hissa, Spende, Opfer kabi so'zlarni soliq-to'lovlari o'rnida qo'llash mumkin. Frankfurter Allgemeine Zeitung da ularga quyidagicha misollar keltiriladi:

“Österreich führt eine Sonderabgabe für den Ausstoß von klimaschädlichem CO2 ein. Die neue Steuer ist Teil einer “ökosozialen“ Steuerreform der konservativ-grünen Regierung, die Bundeskanzler Sebastian Kurz am Sonntag auf einer Pressekonferenz in Wien vorstellte [3]”.

Ushbu maqolada atrof-muhitga zarari uchun maxsus soliq turini joriy qilishi haqida yoziladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ekologiyaning buzilishi orqali iqtisodiyotga zarar kelayotganligi va endi ularning oldi olinishi uchun esa bunday soliqlar joriy qilinishi kuzatilmoqda.

Beitrag iqtisodda qo'llaniladigan soliq so'zining o'rniga qo'llanilishi mumkin bo'lgan bu evfemizm ham aktiv qo'llaniladi. Jumladan, Frankfurter Allgemeine Zeitung da quyidagi maqolani tahlil qilish mumkin:

“Zu Beginn des neuen Jahres haben 19 der 97 gesetzlichen Krankenkassen den Zusatzbeitrag erhöht. In den nächsten Jahren könnten die Beiträge weiter steigen [4]”.

Bu maqolada yangi yil boshida 97 ta qonuniy tibbiy sug'urtadan 19 tasi qo'shimcha badalni oshirganligi va keyingi bir necha yil ichida hissalar o'sishda davom etishi mumkinligi haqida

yozilgan. Demak, ushbu maqolada hissa evfemik ma'noga ega va soliq so'zi o'rniga kelganligini kuzatish mumkin.

Die Spende-xayriya so'zi ham soliqlar o'rnida qo'llanilishining guvohi bo'lish mumkin:

“Wer bei einer Flugreise CO₂-Emissionen verursacht, kann der gemeinnützigen GmbH Atmosfair eine Spende für Klimaschutzprojekte geben und so den verursachten Schaden kompensieren. Immer mehr Fluggesellschaften bieten so etwas direkt bei der Buchung an [5]”. Maqolaning quyidagi qismida yozilishicha, parvoz paytida CO₂ni keltirib chiqaradigan har bir kishi notijorat “Atmosfair GmbH” kompaniyasiga iqlimni muhofaza qilish loyihalari uchun xayriya qilishi va shu tariqa yetkazilgan zararni qoplashi mumkin. Ko'proq aviakompaniyalar bron qilishda shunga o'xshash narsani taklif qilmoqdalar.

Demak, atrof-muhitga keltirilgan iqtisodiy zararlarni qoplash uchun “xayriyalar” undirilishi va shu bilan zararlarni qoplashni maqsad qilingan.

“Taina Gärtner kämpft im Berliner Bezirk Friedrichshain-Kreuzberg für Flüchtlinge und gegen Gentrifizierung. Die Grünenpolitikerin weiß, was es heißt, sich im Leben behaupten zu müssen [6]”.

Maqolada ifodalangan qayta qurish ma'nosini bildirayotgan Gentrifizierung so'zi aslida qayta obodonlashtirish yo'li bilan faqatgina aholining boy qatlamlargina ko'chib o'ta oladigan maskanga aylantirishni bildiradi. Maqolada bu evfemizm qayta qurish orqali ma'lum boy qatlam to'planishini lingvistik jozibadorlik orqali namoyon etish uchun xizmat qilgan.

“Asylsuchende könnten ohne Verfahren in Länder außerhalb der EU abgeschoben werden [7]”. Asylsuchende boshpanasiz odamlarga nisbatan qo'llaniladi. Bundan anglash mumkinki, boshpanasiz odamlarning ko'payishi esa siyosatning to'g'ri olib borilmasligidan dalolatdir. Uning o'rniga Obdachlose so'zining qo'llanmasligi esa boshpanasiz degandan ko'ra boshpana qidirayotgan deganligi afzaldir.

“Unionsfraktionschef Volker Kauder (CDU) sagte, er werde zusammen mit CSU-Landesgruppenchef Peter Ramsauer seiner Fraktion vorschlagen, die geplante Diätenanpassung in der kommenden Woche nicht zu beschließen [8]”.

“Parhez saqlash” so'zi o'z ma'nosida qo'llanilganda, sog'likdagi muammo tufayli ovqatlardan tiyilish ma'nosini bildirsa, deputatlar orasida esa aholi soliqlaridan tushayotgan katta tushumni o'zlari uchun hisoblashni anglatadi. Yuqorida keltirilgan Spiegel jurnalidan keltirilgan maqolada ham Diätenanpassung so'zi aslida qo'shimcha nafaqa ma'nosini anglatadi.

“Das Prinzip der politischen Landschaftspflege. Geldsegen für die Bürgerlichen: Wie Großspender ihre Zuwendungen an Parteien verteilen - und wer davon am meisten profitiert [9]”.

Yuqoridagi maqolada Landschaftspflege so'zi muntazam siyosatchilarning pora olishini bildirib kelgan. Uning qo'llanilishiga e'tibor qaratilsa, bir qarashdayoq matndagi ifoda etilgan ma'nosini tushunish biroz mushkul, ammo undan keyingi kelayotgan jumlagi nazar solinsa, pul bilan bog'liq vaziyat ro'y berayotganligini anglash qiyin emas.

“Der größere Teil der Personalanpassung wurde bereits in den letzten Jahren erledigt, jetzt geht es um die letzte Etappe [10]”, sagte Müller.

Personalanpassung keltirilgan bu so'z ishchilarning ishdan bo'shatilishi ma'nosini bildiradi. Buning asosiy sabablari korxonalar yoki tashkilotlardagi iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari

keskin tushayotganligi yoki ishchi va xodimlarning salohiyati bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Yuqoridagi maqolada esa xodimlarning bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha saralab ishda qolishi haqida gap boradi, ya'ni ularni saralash deya faqatgina kuchli salohiyatga ega xodimlarni ishda olib qolishligi haqida ma'lumot beriladi.

“Geld oder Blei”: Mexikos Drogenkartelle ringen vor den Wahlen um Einfluss - und bedrohen, schmieren, ermorden Politiker. Inhaftierte Bandenmitglieder schildern, wie skrupellos die Gangs vorgehen [11]”.

Ushbu Frankfurter Allgemeine Zeitung da keltirilgan yuqoridagi maqolada Meksikadagi saylovoldi harakatlarda narkokartellari siyosatchilarga turli tazyiqlar o'tkazayotganliklari yoki ularga pora berish yo'li bilan o'zlariga og'dirib olishga harakat qilayotganliklari haqida gap boradi. Maqolada evfemizm sifatida kelgan schmieren so'zi oshkoralik bilan pora bermoq deya ifodalanmaydi. U aslida maqolada o'zbek tilidagi og'zini moylamoq frazeologizmiga ma'nodosh bo'la oladi va bunday ishlar noqonuniy xatti-harakatlardan bo'lganligi uchunam yuqoridagi evfemizmlardan foydalaniladi. Bu evfemik tarzda ifodalangan so'z esa qonunbuzarlarning bunday harakatlarini, garchi ular qoralansa-da, lekin bunday vaziyatni esa xalqqa lingvistik tomondan salbiy ta'sir doirasi nisbatan kamroq bo'lgan so'zdan foydalanilgan holda yetkazib berilgan va bu bilan ommani e'tiborli bo'lib, loqaydlikdan saqlanishlari uchun harakat qilingan.

Iqtisodiyotdagi siyosiy jarayonlarda evfemizmlarning qo'llanilishi juda ham muhim hisoblanadi, chunki bo'layotgan turli iqtisodiy jarayonlarni ommaga yetkazib berish uchunam evfemizmlardan keng foydalaniladi.

Iqtisodiyotdagi narxlarning o'zgarishi, soliq va unga bog'liq holatlar, pul muomalasi, savdo-sotiqalarda narx-navoning muntazam o'zgarishi, narxlarning yuqorilab borishi va monopoliyaga yo'l qo'yilishi kabi munosabatlarning salbiy ko'rinishlarini lingvistik tomondan evfemizmlardan foydalanilgan holda yumshatilishiga, boshqalarga salbiy ta'sirlarini biroz kamaytirishga urunish kabi omillar sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN GAZETA VA JURNALLAR RO'YXATI

1. Anlagebetrug: Polizist soll Bekannte mit “Reptilienfonds” betrogen haben, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 20.06.2008.
2. Christian Siedenbiedel. Gastro-Inflation: Nach der Krise wird es im Restaurant teurer Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 15.10.2021.
3. Klima: Österreichs Regierung führt neue CO2-Abgabe ein, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 03.10.2021.
4. Bericht: 19 gesetzliche Krankenkassen im neuen Jahr teurer, Mehr als ein Viertel der gesetzlichen Krankenkassen wird teurer, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 01.01.2022.
5. Tobias Schrörs. Ecology Class, Bild zu: Flugreisende können CO2-Emission durch Spende kompensieren - Frankfurter Allgemeine Zeitung (FAZ), www.faz.net, 09.09.2019.
6. Milena Hassenkamp. Eine für unten, der Spiegel, www.spiegel.de, 19.05.2019.
7. Dänemark will Asylzentren in Drittstaaten ermöglichen, Süddeutsche Zeitung, www.sueddeutsche.de, 03.06.2021.
8. Fraktionschefs stoppen Diätenerhöhung, der Spiegel, www.spiegel.de, 20.05.2008.

9. Hans Leyendecker, Das Partei der politischen Landschaftspflege, Süddeutsche Zeitung, www.sueddeutsche.de, 17.05.2020.
10. Die letzte Etappe”, Süddeutsche Zeitung, www.sueddeutsche.de, 17.05.2010.
11. Klaus Ehringfeld, Alle vier Tage stirbt ein Politiker, der Spiegel, www.spiegel.de, 23.03.2018.